



## XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH

**Toshpo'latov Alisher Kenjayevich**  
Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari yoritiladi. Xalqaro moliya institutlari tomonidan mamlakatimizning ustuvor tarmoqlariga jalb qilingan mablag'larning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni takomillashtirish, loyihalarni tanlash va monitoring qilish tizimini xalqaro standartlar asosida amalga oshirish hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya institutlari, investitsiya loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, xalqaro hamkorlik, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilmani rivojlantirish.

### KIRISH

Xalqaro moliya institutlari (XMI) rivojlanayotgan mamlakatlarning investitsiya ehtiyojlarini qondirish, ularning iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu institutlar nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etadi, balki ilg'or xalqaro tajriba, texnik yordam va kafillik mexanizmlari orqali loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Islom taraqqiyot banki (IsDB) va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) bilan strategik sheriklik mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsion muhitni yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlar xorijiy hamkorlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Mamlakatimiz Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyodagi eng yirik hamkorlaridan biriga aylangan, qo'shma loyihalar portfeli 14 milliard dollardan oshgan. Toshkentda Jahon bankining mintaqaviy ofisi ochilgan va o'zaro hamkorlikning yangi bosqichiga o'tish imkoniyati yaratilgan.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ustuvor ijtimoiy, infratuzilma va ekologik loyihalarni tanlab olish, sifatli tayyorlash va jadallashtirish vazifalari belgilangan. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish

mexanizmlarini tadqiq etish, ularning amaliy natijalari va samaradorligini baholash, hamda mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining joriy holatini tahlil qilish, tanlangan moliyalashtirish modellarining samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Xalqaro moliya institutlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda asosan XMI faoliyatining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri, moliyalashtirishning samaradorlik mezonlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari tahlil qilingan.

Xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan mamlakatlardagi roli va ularning moliyalashtirish mexanizmlari ko'plab xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan. Xususan, P.Gomber, R.J.Kauffman, C.Parker va B.W.Weber tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalqaro moliya institutlari moliyalashtirishining asosiy konsepsiyalari va ularning transformatsion ta'siri batafsil tahlil qilingan. Ushbu olimlarning ta'kidlashicha, XMI tomonidan jalb qilingan mablag'lar faqatgina moliyaviy yordam emas, balki institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi va milliy iqtisodiyotlarni global moliyaviy bozorlarga integratsiyalovchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

J.Lomati va M.Shamsuddin tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy tadqiqotda ko'p tomonlama rivojlanish banklari (MDBs) ishtirokidagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, MDB loyihalari an'anaviy tijorat moliyalashtirishiga nisbatan uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarni taqdim etishi, shuningdek, loyihalarning ijtimoiy va ekologik standartlarga mosligini kafolatlashi bilan ajralib turadi. Biroq, ushbu moliyalashtirish shaklining asosiy kamchiliklari sifatida loyihalarni tayyorlash va tasdiqlash jarayonining murakkabligi hamda uzoq davom etishi ko'rsatilgan.

C.Smith va B.Ergashev tomonidan o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda xalqaro moliya institutlaridan barqaror rivojlanish maqsadlarida foydalanish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotda mualliflar XMI moliyalashtirishining samaradorligini oshirish uchun mahalliy institutsional salohiyatni kuchaytirish, loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini asoslab berganlar.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalalari, ayniqsa, so'nggi o'n yillikda faol o'rganilmoqda. Professor J.X.Ataniyazov tomonidan O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik tarixi, jalb qilingan mablag'larning hajmi va ularning iqtisodiyotga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Xususan, bank tizimini isloh qilish va moliyaviy resurslarni boshqarishda XMI tajribasining o'rni alohida ta'kidlangan. Mualliflarning fikricha, XMI tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar O'zbekistonda infratuzilmani modernizatsiya qilish va iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Professor Sh.Abdullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa moliyaviy

resurslarni boshqarishda xalqaro tajriba va uning O‘zbekistonda qo‘llanilishi masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda XMI tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarning moliyaviy monitoringi va auditini takomillashtirish, jalb qilingan mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi, investitsiya loyihalarining moliyalashtirish mexanizmlari induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik tahlil usullari asosida o‘rganilgan. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari (xususan, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlari), xalqaro moliya institutlarining rasmiy statistik ma‘lumotlari va loyiha hisobotlari, hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

*Jahon banki guruhi.* O‘zbekiston Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyodagi eng yirik hamkorlaridan biridir. 2025-yil aprel oyidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Jahon bankining O‘zbekistondagi loyiha portfeli 12 milliard dollardan oshgan va bu mamlakatni ushbu institutning asosiy strategik sheriklaridan biriga aylantirgan. Qo‘shma loyihalar portfeli 14 milliard dollardan oshib, Toshkentda Jahon bankining mintaqaviy ofisi ochilgan. Loyihalar asosan qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, energetika, transport, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalariga yo‘naltirilgan. Xususan, Jahon banki ishtirokidagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi”, “Taqsimlash elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish” dasturi kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilashga, elektr ta‘minoti barqarorligini oshirishga va 500 million dollardan ortiq mablag‘ni ijtimoiy sohaga qaratishga xizmat qilmoqda.

*Osiyo taraqqiyot banki (ADB).* O‘zbekiston 1995 yildan ADB a‘zosi bo‘lib, shu vaqtgacha institut mamlakatimizga kreditlar, grantlar va texnik yordam ko‘rinishida jami 14,6 milliard dollar ajratgan. ADB tomonidan amalga oshirilayotgan yirik loyihalar qatoriga “Rural Roads Resilience Sector Project” (240 million dollar, 25 yil muddatga yillik 2% stavka bilan), “Kichik va o‘rta biznesga moliyaviy resurslar yetkazib berishni kengaytirish” dasturi (300 million dollar, shundan 100 million dollari imtiyozli), hamda Nukus-2 shamol va batareya energiyasini saqlash loyihasi (51 million dollar) kiradi. ADB, shuningdek, xususiy sektorni rivojlantirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va islomiy mikromoliya sohasida qonunchilik bazasini yaratishda O‘zbekistonga faol yordam bermoqda.

*Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD).* 2024 yilda EBRD O‘zbekistonda yangi rekord o‘rnatdi — 938 million yevro (\$960 million) miqdorida 34 ta loyiha imzolandi. Mazkur mablag‘larning qariyb 55 foizi “yashil” iqtisodiyot tashabbuslariga, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi loyihalariga yo‘naltirilgan. Asosiy loyihalar qatoriga Toshkent viloyatida 200 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi va 501 MVt/soat batareya energiyasini saqlash tizimini qurish (226 million dollar), Navoiy viloyatida 230 km yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini qurish (66,4 million dollar) va Chirchiqda “yashil” vodorod ishlab chiqarish loyihasi (65 million dollar) kiradi. 2025 yilga kelib, EBRDning O‘zbekistondagi portfeli jami 185

ta loyiha va dasturni qamrab olgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 5,8 milliard yevroga yetgan. Oltinchi yil ketma-ket O‘zbekiston EBRD moliyalashtirishining eng yirik oluvchisi bo‘lib, 2025 yilda ushbu institutdan 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ jalb etilgan.

*Islom taraqqiyot banki (IsDB).* O‘zbekiston Islom taraqqiyot banki bilan bir qator yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2024 yilda “Kichik va o‘rta korxonalarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash” loyihasi doirasida 30 million dollar miqdorida kredit ajratilgan bo‘lib, ushbu mablag‘lar “Murobaha” tamoyili asosida kichik biznes sub’ektlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, IsDB ishtirokida Sirdaryo viloyatida 37 km avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish loyihasi hamda “SmartED” dasturi doirasida 58 ta umumta’lim maktablarini inklyuziv ta’lim talablari asosida qurish loyihalari amalga oshirilmoqda.

*Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF).* Asosiy e’tiborni soliq-budjet siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlash va davlat banklarini xususiylashtirishni tezlashtirishga qaratmoqda. 2025 yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining o‘shishi 6–7 foiz darajasida baholanmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda 2025 yilga mo‘ljallangan asosiy loyihalarning maqsadli ko‘rsatkichlari keltirilgan.

### 1-jadval


#### 2025-yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari<sup>1</sup>

Ko‘rsatkich	Summa (mlrd. AQSH dollari)
Davlat kafolati ostida jalb qilinadigan kreditlar hisobidan	5,26
Davlat kafolatisiz jalb qilinadigan kreditlar hisobidan	2,25
Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari va xalqaro moliya institutlarining grantlari hisobidan	0,13
Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘larining boshqa manbalari	6,55
<b>Jami</b>	<b>14,19</b>

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, jami 14,19 mlrd. dollarning qariyb 37 foizi (5,26 mlrd.) davlat kafolati ostidagi kreditlardan iborat. Bu suveren qarz majburiyatlarining ortishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun qarzning YaIMga nisbatan barqarorligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Davlat kafolatisiz kreditlar ulushi 15,8 foizni (2,25 mlrd.) tashkil etadi – xususiy sektor va loyihaviy moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Grantlar ulushi 0,9 foiz (0,13 mlrd.) kabi juda kichik ko‘rsatkichni tashkil etgan, bu esa imtiyozli shartlardagi yordamga tayanish imkoniyatlarini cheklaydi. Eng katta

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-51-son qarori. – 2025 yil 11 fevral.

ulush – 6,55 mlrd. dollar yoki taxminan 46 foiz – “boshqa manbalar” (masalan, xususiy investitsiyalar, qayta moliyalashtirish, tijorat kreditlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari) hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashganligini va xalqaro moliya institutlarining qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilishdagi roli ortib borayotganligini ko‘rsatadi.



**1-rasm. 2025-yilda xalqaro moliyaviy mablag‘larning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimoti<sup>2</sup>**

Rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, eng katta ulush — 35 foiz (taxminan 4,97 mlrd. dollar) energetika va “yashil” iqtisodiyot sohasiga yo‘naltirilgan. Bu mamlakatning energetika xavfsizligini ta‘minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish borasidagi strategik ustuvorligini aks ettiradi. Ushbu yo‘nalishga ajratilgan mablag‘lar karbon chiqindilarini kamaytirish, energiya ishlab chiqarishni barqarorlashtirish hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi o‘rinda transport infratuzilmasi — 25 foiz (taxminan 3,55 mlrd. dollar) turadi. Ushbu mablag‘lar avtomobil va temir yo‘llarini rekonstruksiya qilish, zamonaviy logistika markazlarini qurish orqali mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish va ichki mintaqalarning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan.

Qishloq va suv xo‘jaligi sohasiga 20 foiz (taxminan 2,84 mlrd. dollar) mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lib, bu suv resurslarining cheklanganligi va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi. Melioratsiya tizimini yaxshilash va suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish imkonini beradi.

Ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalariga atigi 12 foiz (taxminan 1,70 mlrd. dollar) ajratilgan. Bu nisbatan past ulush bo‘lsa-da, inson kapitali sifatini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliya va bank sektori ulushi 8 foiz (taxminan 1,14 mlrd. dollar) ni tashkil etgan. Ushbu mablag‘lar kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va islomiy moliyani

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni tartibga soluvchi muhim normativ-huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq, loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish, monitoring va postmonitoring qilishning yagona tartibi belgilangan.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik samaradorligini oshirish va investitsiya loyihalarining moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish lozim:

1. Loyihalarni tanlash va baholash mezonlarini takomillashtirish. Xalqaro moliya institutlarining texnik va maslahat yordamidan keng foydalangan holda, loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish;

2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish. Ayniqsa, energetika, transport va kommunal infratuzilma sohalarida xususiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish;

3. Jalb qilingan mablag‘larni boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash. Loyihalar monitoringi va moliyaviy oqimlarni kuzatishda yagona raqamli platformani joriy etish;

4. Mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda loyihalarni boshqarish, moliyaviy tahlil va risklarni boshqarish bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;

5. Xalqaro moliya institutlari va davlat organlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish. Loyihalarni amalga oshirishda byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston xalqaro moliya institutlari ishtirokida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishgan. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi institutlar bilan mustahkamlangan strategik hamkorlik natijasida mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar infratuzilmani modernizatsiya qilish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, xususan, ta’sirchanlikka asoslangan moliyalashtirish (performance-based financing) va “yashil” obligatsiyalar (green bonds) kabi vositalarni joriy etish;

2. XMI ishtirokidagi loyihalarni tanlash va baholash mezonlarini takomillashtirish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini integratsiyalashgan holda baholash metodikasini ishlab chiqish;

3. Loyihalarni boshqarishda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, Bosh

vazir huzuridagi loyiha ofisining vazifalarini kengaytirish va takomillashtirish;

4. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining ulushini oshirish, xususan, transport, energetika va kommunal infratuzilma sohalarida;

5. Xalqaro moliya institutlari va mahalliy ijro etuvchi organlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, loyihalarni amalga oshirishda tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish;

6. Loyihalarni amalga oshirish jarayonida davlat tomonidan nazorat va monitoring tizimini xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik samaradorligini oshirish, investitsiya loyihalarining moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va jalb qilingan mablag'lardan foydalanish natijadorligini ta'minlash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – 2022 yil 28 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-51-son qarori. – 2025 yil 11 fevral.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon banki guruhi prezidenti bilan Nyu-Yorkdagi uchrashuvi yakunlari bo'yicha axborot – 2025 yil 22 sentyabr.

5. World Bank. (2024). Uzbekistan Partnership Program Snapshot. – Washington D.C.: World Bank Group.

6. Asian Development Bank (ADB). (2025). Project Documents and Reports for Uzbekistan. – Manila: ADB.

7. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2025). Uzbekistan Country Strategy and Investment Reports. – London: EBRD.

8. Islamic Development Bank (IsDB). (2024). Member Country Partnership Strategy: Uzbekistan. – Jeddah: IsDB.

9. International Monetary Fund (IMF). (2025). Uzbekistan: Staff Report for the 2025 Article IV Consultation. – Washington D.C.: IMF.

10. Gomber, P., Kauffman, R.J., Parker, C., Weber, B.W. On the FinTech Revolution: Interpreting the Forces of Innovation, Disruption, and Transformation in Financial Services // Journal of Management Information Systems. – 2018. – Vol. 35, No. 1. – P. 220–265.

11. Lomati J., & Shamsuddin M. (2024). Financing Infrastructure Projects with Multilateral Development Banks: A Comparative Study. Journal of International Development, 36(2), 215-240.

12. Smith C., & Ergashev B. (2024). Leveraging International Financial Institutions for Sustainable Development in Transition Economies. Central Asian Economic Review, 11(3), 45-67.